



Islomda yoshlar tarbiyasining asosiy yo'nalishlari

Saydullayeva Oxista

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari

Universiteti Samarqand filiali

Elektron pochta: oxistasaydullayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom dinida yoshlarni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Qur'on va Hadislarga tayangan holda bolalarni tarbiyalashdagi ma'naviy, axloqiy va diniy mezonlar ochib beriladi. Maqolada islomiy tarbiyaning yoshlarni komil, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishdagi o'rni ta'kidlanadi. Shuningdek, ota-onalar, jamiyat va ta'lim muassasalarining yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi mas'uliyati va ularning ijtimoiy ongini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Zamonaviy tahdidlar sharoitida islomiy tarbiyaning ahamiyati alohida e'tiborga olinadi. Maqolada yosh avlodni milliy va diniy qadriyatlari asoslangan holda tarbiyalashning dolzarb jihatlari yoritiladi.

Kalit so'z: islomda tarbiya, yoshlar odobi, axloqiy tarbiya, diniy bilimlar, qur'on va tarbiya, payg'ambar sunnati.

Abstract: In this article, the main directions of youth education in Islam are analyzed. Based on the Qur'an and Hadiths, the spiritual, moral, and religious standards of child upbringing are explained, and the role of Islamic education in shaping youth as mature individuals is highlighted. The study also discusses the responsibilities of parents, society, and educational institutions in the upbringing of youth, their role in shaping social consciousness, and the importance of Islamic upbringing in the context of modern threats. The article reveals the urgent aspects of educating youth based on national and religious values.



Аннотация: В данной статье анализируются основные направления воспитания молодежи в исламе. На основе Корана и хадисов освещаются духовные, нравственные и религиозные нормы воспитания детей, подчеркивается роль исламского воспитания в формировании молодежи как зрелой личности. В исследовании рассматривается ответственность родителей, общества и образовательных учреждений в воспитании молодежи, их роль в формировании общественного сознания, а также важность исламского воспитания в условиях современных угроз.уу Статья раскрывает актуальные аспекты воспитания молодежи на основе национальных и религиозных ценностей.

Yoshlar har qanday jamiyatning tayanchi, istiqboli va ertangi kunidir. Ularning to'g'ri tarbiyalanishi nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning baxtli kelajagini ta'minlaydi. Islom dini yoshlar tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratadi. Chunki sog'lom iymon, toza axloq va chuqur bilim bilan tarbiyalangan yosh avlod halol, adolatli va mas'uliyatli jamiyatning bunyodkoriga aylanadi. Qur'on oyatlari va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida ham yoshlarning tarbiyasi haqida ko'plab saboqlar berilgan. Ushbu mavzuda biz islomiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari, usullari va ularning bugungi yoshlar hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritamiz. Islom dinida axloqiy tarbiya diniy tarbiyaning ajralmas qismi, desak, mubolag'a qilmaymiz. Zero, din yaxshi deb xisoblagan va da'vat etgan narsalar ezgulik, yomon deb xisoblagan va man' etgan narsalar yovuzlikdir. Shuningdek, din buyurgan, hayotda va muomalada kasb etishga targ'ib etgan axloq va faziylatlar Islom jamiyatida qadriyat, chiroyli xulq va ma'naviy fazilatlar hisoblanadi.

Axloqiy dunyo o'z tabiatiga ko'ra diniydir. Axloqi va muomalasi go'zal bo'lmagan musulmonning dini ham mukammal hisoblanmaydi. Qadimdan axloq ilmi ulamolari “Odamdagi axloqlar uning yaratilishida qo'shib yaratilgan bo'ladimi yoki kishi axloqni keyin o'rganadimi?” degan savolga javob berishda ixtilof qilishgan. Ulardan ba'zilari: «Yaxshi va yomon axloq inson yaratilgan chog'ida qo'shib yaratiladi, axloqni keyin kasb



qilib bo'lmaydi», deganlar. Boshqa bir guruh ulamolar: «Inson tug'ilganda hech qanday fazilat yoki razilatsiz tug'iladi, unda qanday xislat bo'lsa, tug'ilganidan keyin paydo bo'ladi», deganlar. Axloq ilmi ulamolari esa: “Ota-onasida mavjud bo'lgan ba'zi axloqlar xamirturushi insonga onasining qornidalik paytidayoq o'tadi. Alloh bandani xalq qilish chog'ida axloq qobiliyatini ham qo'shib yaratadi. Inson o'sishi jarayonida tarbiya, muhit va odatlanish oqibatida u yoki bu axloqni o'zida rivojlantiradi yoki yo'qotib yuboradi”, deydilar. Shuning uchun ham, Islomda xulqli sayqallashga alohida e'tibor beriladi. Bu ish har bir musulmon uchun lozim va lobud ishlardan biri darajasiga ko'tariladi. Tarbiyaning asosi ko'p jihatdan bilimga va yaxshilarga yondashishda va ularning ibratli hayot tarzi asosida yuzaga kelgan boy tajribaga hamda purma'no so'zlarini qay darajada bilishga borib taqalar ekan. Shu o'rinda, bobomning yoshligimda aytgan go'zal o'gitlarini misol tariqasida keltirmoqchiman: “Bolam, allomalarimiz qoldirgan hikmatli so'z va matallarni qanchalik yod olib borsang, qalbingga shunchalik naqshlanib boraveradi. Natijada, sening tilingdan ham shunday go'zal so'zlar yog'ila boshlaydi”. Farzandlarimiz ham rivoyat, hikoyat va ibratli so'zlarga juda muhtoj.

Yoshlar tarbiyasi — jamiyatdagi muhim masala!

Darhaqiqat, inson hayoti bir necha bosqichlarga bo'linadi. Bu bosqichlar ichida umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik insonning eng nozik davri hisoblanib, insonning quvvatga to'lgan va harakatchanligi ziyoda bo'lgan vaqtidir. Shu bilan birga bu davr insonning hayot yo'llarining chorrahasida turgan payti hamdir. Agar, o'sha chorrahada yaxshi yo'lga kirib olinsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun juda katta yaxshilik sari yuzlangan bo'ladi. Agar, Alloh taolo ko'rsatmasin, mazkur chorrahada yomon yo'lga burilib ketsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun ko'ngilsiz hodisalar sari qadam qo'ygan bo'ladi. Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo'lishligi yoshlik paytidan bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi. Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ijobiy va



salbiyga bo'linadi. Alloh taoloning oxirgi va mukammal dini, qiyomatgacha boqiy qoluvchi, barcha zamonlar va makonlarda insoniyatga ikki dunyo saodati yo'lini ko'rsatib beruvchi dini — Islomda yoshlarning tarbiyasiga oid ko'plab oyat va hadislar vorid bo'lgan. Mana shu oyat hadislariga og'ishmasdan, to'laligicha amal qilinsa, Allohning tavfiqi bilan, o'sib o'nayotgan farzandlar chiroyli xulqli, odobli, tarbiyali bo'lib o'sadilar va umrlarining oxirigacha shunday yashaydilar. Ulardan barcha mamnun bo'ladi, insonlarning hurmatiga, muhabbatiga sazovor bo'lishadi. Islom diyni hech kimni hech qachon yomonlikka chaqirmaydi balki doimo yaxshilik qilishga, go'zal xulqlar bilan xulqlanishga, halol yashashga chaqiradi. Bu tarbiyaning islomiy ko'rinishi. Buni ijobiy tarbiya deyiladi.

Endi salbiy tarbiya qanday bo'ladi, nimadan kelib chiqadi? Salbiy tarbiya bu ijobiy tarbiyaning aksi bo'lib, uning salbiy ekanligi faqatgina ta'lim orqali bilinadi. Uning kelib chiqishi johillik sababidan, qaysarlik va bo'yinsunmaslikdan, havoi nafsga berilib ketishdan kelib chiqadi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarida, yoshlar orasida mashhurlik darajasiga erishgan «Ommaviy madaniyat» deb ataluvchi ofat yoshlarning orasiga chuqur singib ketgan bo'lsa-da, uning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirlari mana endi endi muhokama qilinmoqda. «Ommaviy madaniyat»ni yoshlarning yurish turishida, salomlashishida, ayniqsa kiyinishida yaqqol ko'zga tashlansa-da, ko'pchilik bunga oddiy holdek yondoshib, «bu moda, zamonning talabi shunday» deb bahona izlashadi. Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri internetdan noo'rin foydalanishdir! Darhaqiqat, internetning imkoniyatlari cheksiz. Agar undan samarali foydalanilsa katta yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli tahdidlardan asrash, ularda xalqaro tarmoq tomonidan taqdim etilayotgan turli axborot oqimidan haqqoniy ma'lumotlarni saralay bilish, to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish, axborot xavfsizligini ta'minlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan yoshlarni internet saytlarga kirishida axborotdan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish zarur. Muqaddas islom diynimizning bu borada ko'rsatmalari qanday? “Ey iymon keltirganlar! O'zingizni va



ahlingizni yoqilg'isi odamlaru toshdan bo'lgan o'tdan saqlang...". (Tahrim 6). Oyati karimada Alloh taolo insonni avvalo o'zini to'g'rilab olmoqligini va shundan so'ng ahliga ta'lim va odob berishligini bayon qilmoqda. Shunday ekan o'sib kelayotgan yosh avlodni, ularning ongiga ta'sir qiluvchi har qanday salbiy holatlardan himoya qilish iymonli kishilarning burchi ekan. Ibn Mas'ud r.a dan rivoyat qilinadi : Nabiyy s.a.v dedilar: “Qiyomat kuni odam bolasining qadami to undan besh narsa haqida: umrini nimaga sarflagani, yoshligini nimaga etkazgani, molini qayerdan kasb qilib olgani va qayerga sarflagani, bilganiga qanday amal qilgani haqida so'ralmagunicha, Robbi huzuridan uzilmaydi”. Termiziy rivoyat qilgan. Bas, biz yoshlar oldimizdagi ulkan marralarga yetishimiz uchun bugungi vaqtimizni zoye qilmaslikka, berilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanishga, vatanimiz, dinimiz uchun xizmat qiladigan fidoiylardan bo'lishga intilmog'imiz va doimo harakatda bo'lishimiz shart!

Yoshlarda ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli maktab, yoshlarning ta'lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan. Yoshlar tarbiyasiga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq e'tiborni qaratib, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ona va bola, Yoshlar, Barkamol avlod, Oila, Obod turmush yili nomlari bilan atalgan Davlat dasturlari va ularning amalga oshirilishi, xalqimizning yorqin kelajagi to'g'risidagi ezgu niyatlari ifodasidir. Dasturlar avvalo jismonan va ma'nan sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissiga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini belgiladi. Ma'lumki, hozirgi davrda globallashuv jarayoni hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv-bu avvalo xayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro yohamkorlik imkoniyatlarining



yuzaga kelishi- bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining bugungi yana bir jihati shuki, u yoshlarga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g'oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda. Shu sabab yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo'lib, bu jarayon Mustaqillik yillarida uzluksiz davom etmoqda. Umuman mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta'minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo'qotgan, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ota-ona mehridan, ularning tarbiyasidan mahrum bo'lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e'tibor, mehr, g'amxo'rlik ko'rsatib kelinayotganligi e'tiborga molik. Mehribonlik uylari, maktab internatlarining va maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, o'quv-tarbiyaviy jarayonini tubdan takomillashish masalalari belgilangan. Yangi jamiyat bunyodkorlari yoshlar tarbiyasida mahallaning va keng jamoatchilikning o'rni buyuk. Yosh yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning o'z o'rinlarini topa olishida, kishilar o'rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy otaxonlar, onaxonlarning tutgan o'rinlari muhimligini ta'kidlash lozim. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida ota-ona mas'uliyati alohida o'rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk bor hayot to'g'risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo'lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so'ngra jamoaga ko'chadi. Yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun ta'lim-tarbiyaga xizmat qiladigan muhim vositalarni yangi sifat bosqichiga ko'tarish zarur bo'ladi. Shu bilan birga bu sohalardagi mavjud katta-kichik kamchiliklar va nuqsonlarga tezlikda barham berish va bunday salbiy holatlardan qutilish lozim bo'ladi. Mamlakatimizda yoshlar ma'naviy tarbiyasida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va gumanitar fanlar ahamiyati beqiyos, shu sabab bu fanlar vakillari o'zlarining o'ta



mas’uliyatli vazifalarini bugungi kun talabi darajasida bajarishlari lozim bo’ladi. Bu sohadagi darsliklar, o’quv qo’llanmalari, adabiyotlarning hamda mutaxassislarning ham saviyasi yuqori bo’lishi talab etiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, xalqimiz, eng avvalo yoshlarimiz ma’naviy olamini kuchaytirish va daxlsizligini asrash uchun doimo sergak, ogoh va hushyor bo’lishimiz, tahdidlarga qarshi chuqur o’ylangan, ilmiy uslubga asoslangan va uzluksiz davom etadigan ma’naviy tarbiyani olib borish lozim bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [https://mirarabmadrassa.uz/oz/news/13-Mir Arab o’rta maxsus islom bilim yurti mudarrisi Maqsudjon Akramov](https://mirarabmadrassa.uz/oz/news/13-Mir-Arab-o'rta-maxsus-islom-bilim-yurti-mudarrisi-Maqsudjon-Akramov)
2. [https://muslim.uz/uz/e/post/17691-yoshlar-tarbiyasi-to-g-risida-Uchqo'rg'on tuman "Nurmuxammad buva" jome masjidi imom noib Toshpo'latov Abdurashid](https://muslim.uz/uz/e/post/17691-yoshlar-tarbiyasi-to-g-risida-Uchqo'rg'on-tuman-Nurmuxammad-buva-jome-masjidi-imom-noib-Toshpo'latov-Abdurashid)
3. [https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/yoshlar-tarbiyasi-jamiyatdagi-muhim-masala-Ergashev Abdulvosi Toshkent islom instituti 4 kurs talabasi](https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/yoshlar-tarbiyasi-jamiyatdagi-muhim-masala-Ergashev-Abdulvosi-Toshkent-islom-instituti-4-kurs-talabasi)